

Original paper

UZLUKSIZ INKLYUZIV TA'LIMDA BOLALARNING SHAXSIY RIVOJLANISHINI  
QO'LLAB-QUVVATLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI



© X.Sh. Kobilova<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Toshkent, Uzbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** Zamonaviy ta'lif jarayoni global ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar ta'sirida chuqur transformatsiyalarga yuz tutmoqda. Bu o'zgarishlar fonida uzuksiz inklyuziv ta'lif konsepsiysi har bir bolaga — ularning yoshi, salomatligi, intellektual va ijtimoiy rivojlanishidagi farqlaridan qat'i nazar — ta'lif olish imkoniyatini ta'minlovchi barqaror tizim sifatida maydonga chiqmoqda. Ushbu tizimning muvaffaqiyati bolaning individual psixologik ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Aynan shu yondashuv orqali ijtimoiy integratsiya, shaxsiy o'sish va ijtimoiy kompetensiyalarning shakllanishi ta'minlanadi.

**MAQSAD:** Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — uzuksiz inklyuziv ta'lif tizimida bolalarning shaxsiy rivojlanishini samarali qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi pedagogik va psixologik omillarni aniqlash, ularni tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Shuningdek, inklyuziv muhitda differensial yondashuvlar, innovatsion strategiyalar va oilaviy-iqtisodiy ko'makning ahamiyati ham ko'rib chiqiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Tadqiqot jarayonida O'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro amaliyat namunalariga oid adabiyotlar, shuningdek, 2019–2022-yillarda qabul qilingan qonunchilik hujjatlari tahlil qilindi. Metod sifatida nazariy tahlil, kontent tahlili, qiyosiy-tahliliy yondashuvlar, shuningdek, amaliy tajriba asosida ilg'or pedagogik metodlar va psixologik qo'llab-quvvatlash shakllari baholandi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, shaxsiy rivojlanish — bu bola intellektining, emotsional barqarorligining, kommunikativ qobiliyatining va ijtimoiy moslashuvchanligining izchil rivojlanishidan iborat. Bu jarayonda pedagogning differensial va individual yondashuvi, psixologik xizmatlar, oilaning emotsional qo'llab-quvvatlashi va innovatsion ta'lif strategiyalari muhim rol o'ynaydi. Interfaol metodlar, STEAM yondashuvi va reflektiv mashg'ulotlar orqali bolalarda mustaqil fikrash, motivatsiya va ijtimoiy faoliyat rivojlanadi. Shuningdek, oilaviy muhit va mahalliy ijtimoiy xizmatlarning hamkorligi bolaning inklyuziv muhitga moslashuvini kuchaytiradi.

**XULOSA:** Uzuksiz inklyuziv ta'lif sharoitida bolalarning shaxsiy rivojlanishini samarali qo'llab-quvvatlash integratsiyalashgan pedagogik-psixologik yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda ta'lif, oila va jamiyatning o'zaro hamkorligi, pedagog va psixologlarning uzviy ishlashi, hamda bolaning individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi innovatsion strategiyalar asosiy omillar sifatida namoyon

bo'ladi. Mazkur yo'nalishda tizimli tadqiqotlar va kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish orqali inklyuzivlik prinsiplarini yanada samarali amalga oshirish mumkin.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'llim, uzluksizlik, shaxsiy rivojlanish, psixologik qo'llab-quvvatlash, pedagogik strategiya, oila, emotsiyal intellekt.

**Iqtibos uchun:** X.Sh. Kobilova Uzluksiz inklyuziv ta'llimda bolalarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashning pedagogik-psixologik asoslari// Inter education & global study. 2025. №6. B.46–52.

## ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОПРОВОЖДЕНИЯ ЛИЧНОСТНОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ В НЕПРЕРЫВНОМ ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

© Ш.Х. Кобилова ١

<sup>1</sup>Чирчикский государственный педагогический университет, Ташкент, Узбекистан

### Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** Современный образовательный процесс претерпевает глубокие трансформации под влиянием глобальных социальных и культурных изменений. На фоне этих изменений формируется концепция непрерывного инклюзивного образования как устойчивой системы, предоставляющей возможность получения образования каждому ребенку независимо от его возраста, состояния здоровья, различий в интеллектуальном и социальном развитии. Успешность данной системы тесно связана с уровнем поддержки его личностного развития с учетом индивидуальных психологических потребностей ребенка. Именно посредством такого подхода обеспечивается социальная интеграция, личностный рост и формирование социальных компетенций.

**ЦЕЛЬ:** Основной целью данной статьи является выявление, анализ и разработка практических рекомендаций по эффективной поддержке личностного развития детей в системе непрерывного инклюзивного образования. Также рассматривается важность дифференцированных подходов, инновационных стратегий и семейно-экономической поддержки в инклюзивной среде.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В ходе исследования были проанализированы научные труды узбекских ученых, литература о примерах международной практики, а также законодательные документы, принятые в 2019–2022 годах. В качестве метода оценивались теоретический анализ, контент-анализ, сравнительно-аналитический подходы, а также передовые педагогические методы и формы психологической поддержки, основанные на практическом опыте.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** Результаты анализа показали, что личностное развитие – это последовательное развитие интеллекта ребенка, эмоциональной устойчивости, коммуникативных способностей и социальной адаптивности. В этом процессе важную роль играют дифференцированный и индивидуальный подход педагога, психологические службы, эмоциональная

поддержка семьи и инновационные образовательные стратегии. С помощью интерактивных методов, STEAM-подхода и рефлексивных упражнений у детей развиваются самостоятельное мышление, мотивация и социальная активность. Также сотрудничество семейного окружения и местных социальных служб усиливает адаптацию ребенка к инклюзивной среде.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Эффективная поддержка личностного развития детей в условиях непрерывного инклюзивного образования требует комплексного педагогического и психологического подхода. В этом процессе основными факторами являются взаимодействие образования, семьи и общества, комплексная работа педагогов и психологов, а также инновационные стратегии, служащие реализации индивидуального потенциала ребенка. Принципы инклюзивности могут быть реализованы более эффективно путем усиления систематических исследований и профессиональной подготовки в этой области.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, преемственность, личностное развитие, психологическое сопровождение, педагогическая стратегия, семья, эмоциональный интеллект.

**Для цитирования:** Кобилова Х.Ш. Педагогические и психологические основы сопровождения личностного развития детей в условиях непрерывного инклюзивного образования // Inter education & global study. 2025. №6. С.46–52.

## PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL BASIS OF SUPPORTING THE PERSONAL DEVELOPMENT OF CHILDREN IN CONTINUOUS INCLUSIVE EDUCATION

© Kobilova Shakhnoza Khudaishukurovna<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Chirchik State Pedagogical University, Tashkent, Uzbekistan

### Annotation

**INTRODUCTION:** The modern educational process is undergoing profound transformations under the influence of global social and cultural changes. Against the background of these changes, the concept of continuous inclusive education is emerging as a sustainable system that provides every child with the opportunity to receive education, regardless of their age, health, differences in intellectual and social development. The success of this system is closely related to the level of support for their personal development, taking into account the individual psychological needs of the child. It is through this approach that social integration, personal growth and the formation of social competencies are ensured.

**AIM:** The main purpose of this article is to identify, analyze and develop practical recommendations for the effective support of the personal development of children in the continuous inclusive education system. The importance of differential approaches, innovative strategies and family-economic support in an inclusive environment is also considered.

**MATERIALS AND METHODS:** During the research, scientific works of Uzbek scientists, literature on international practice examples, as well as legislative documents

adopted in 2019–2022 were analyzed. As a method, theoretical analysis, content analysis, comparative-analytical approaches, as well as advanced pedagogical methods and forms of psychological support based on practical experience were evaluated.

**DISCUSSION AND RESULTS:** The results of the analysis showed that personal development is the consistent development of a child's intelligence, emotional stability, communicative abilities and social adaptability. In this process, a differentiated and individual approach of the teacher, psychological services, emotional support of the family and innovative educational strategies play an important role. Through interactive methods, the STEAM approach and reflective exercises, independent thinking, motivation and social activity are developed in children. Also, the cooperation of the family environment and local social services enhances the child's adaptation to an inclusive environment.

**CONCLUSION:** Effective support for the personal development of children in the context of continuous inclusive education requires an integrated pedagogical and psychological approach. In this process, the main factors are the interaction of education, family and society, the integrated work of educators and psychologists, as well as innovative strategies that serve to realize the individual potential of the child. The principles of inclusion can be more effectively implemented by strengthening systematic research and professional training in this area.

**Keywords:** inclusive education, continuity, personal development, psychological support, pedagogical strategy, family, emotional intelligence.

**For citation:** Kobilova H.Sh. Pedagogical and psychological foundations of supporting children's personal development in the context of continuous inclusive education // Inter education & global study. 2025. No. 6. Pp. 46–52.

Zamonaviy ta'lim paradigmasi o'zgarayotgan global ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy sharoitlarda Uzluksiz inklyuziv ta'lim — bu bolalarning har qanday yosh bosqichida (mактабгача, мактаб ва мактабдан кейинги) maxsus ehtiyojlari, salomatlik holati, intellektual yoki ijtimoiy rivojlanishidagi farqlarga qaramasdan, ta'lim olish huquqini ta'minlashni ko'zda tutadigan kompleks tizimdir. Mazkur tizimning samaradorligi, avvalo, bolalarning **shaxsiy rivojlanishini** qo'llab-quvvatlash darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki bolalarning individual psixologik ehtiyojlarini e'tiborga olmagan holda ularni ijtimoiy muhitga integratsiya qilish, shaxsiy o'sishini rag'batlantirish va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish deyarli imkonsiz bo'lib qoladi [1].

Shaxsiy rivojlanish kategoriyasi o'z mohiyatiga ko'ra kompleks va ko'p darajali jarayon bo'lib, u bolaning intellektual salohiyati, emotsiyonal barqarorligi, kommunikativ kompetensiyasi va o'zini anglash qobiliyatining rivoji bilan tavsiflanadi. Shu boisdan, uzuksiz inklyuziv ta'limda bolaning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashni tashkil etish

psixologik xizmatlar tizimi, individual yondashuv, differensial pedagogika va oilaviy-ijtimoiy ko'mak strategiyalarini integratsiyalashni talab qiladi [2].

O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limga joriy etish yo'lida muhim normativ-huquqiy asoslar yaratilmogda. Xususan, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun (2019-yil) hamda Prezident qarorining (PQ-5283, 2021-yil) qabul qilinishi ushbu yo'nalishdagi davlat siyosatini mustahkamladi. Shu bilan birga, psixologik xizmatlarni takomillashtirish, maxsus pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish va individual rivojlanish trajektoriyalarini yaratish masalalari hamon dolzarb bo'lib qolmoqda.

Uzluksiz inklyuziv ta'limga tizimida bolalarning shaxsiy rivojlanishini samarali qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi pedagogik va psixologik omillar tizimli tarzda tahlil qilinadi. Bu borada O'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro tadqiqotlar, hamda amaliy tajribalarga tayanib, muammoning nazariy-metodologik va amaliy asoslari yoritiladi.

Shaxsiy rivojlanish — bu bolaning intellektual, emotsiyonal, ijtimoiy va axloqiy jihatdan takomillashuvini o'z ichiga olgan murakkab jarayondir. Inklyuziv ta'limga bu jarayon individual imkoniyat va ehtiyojlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. A.Abdullaeva (2022) fikricha, shaxsiy rivojlanishning asosiy psixologik ko'rsatkichlari — bu o'zini anglash, ijtimoiy rolni qabul qilish, ijobjiy o'z-o'zini baholash va kommunikativ moslashuv hisoblanadi.

Inklyuziv muhitda pedagogning asosiy vazifasi — didaktik yondashuvlar orqali boladagi mavjud salohiyatni aniqlash, uni rivojlantirish va mustahkamlashdir. Shu nuqtai nazardan, differensial yondashuv, refleksiv tahlil, kognitiv faoliyatga yo'naltirilgan o'yin metodlari samarali hisoblanadi [Karimova, 2019].

#### Inklyuziv ta'limga shaxsiy rivojlanish tushunchasining psixologik asoslari

Inklyuziv ta'limga kontseptsiyasi doirasida bola shaxsining rivojlanishi uning individual ehtiyojlariga, qobiliyatlariga va sotsial adaptatsiya darajasiga mos pedagogik-psixologik muhitda shakllanishi bilan izohlanadi. Shaxsiy rivojlanish murakkab ko'p komponentli tizim bo'lib, unda intellektual, emotsiyonal, ijtimoiy va axloqiy omillar o'zaro aloqadorlikda kechadi. Vygotskiy (1982) nazariyasiga ko'ra, bola rivoji sotsiokultural muhit ta'sirida ro'yobga chiqadi, bu esa inklyuziv muhitda o'zaro muloqot va qo'llab-quvvatlovchi vositalarning ahamiyatini oshiradi.

Uzluksiz ta'limga zanjirida pedagogik moslashuv va psixologik qo'llab-quvvatlash tamoyillari

Ta'limga bosqichlari o'rtaida uyg'unlik bo'lishi – bolani har bir yangi bosqichga moslashtirish va stresssiz o'tishiga imkon beruvchi muhim shartdir. Pedagogik moslashuv o'quv dasturlarining moslashtirilgan shakllarini, ko'p darajali baholash tizimini

va psixologik treninglarni o‘z ichiga oladi (Toshpulatova, 2021). Psixologik qo’llab-quvvatlash esa diagnostika, korrektsiya va rivojlantirish komponentlarini qamrab oladi.

Innovatsion yondashuvlar: Differensial va individual ta’lim strategiyalari

Zamonaviy inklyuziv ta’limda individual yondashuvlar asosida ta’lim berish alohida ahamiyatga ega. Bolaning qiziqishi, rivojlanish sur’ati, o’rganish uslublari va ehtiyojlariga mos keluvchi metodlar orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Interfaol texnologiyalar, STEAM yondashuvi, reflektiv metodlar kabi innovatsion strategiyalar bola shaxsining har tomonlama kamolotiga xizmat qiladi (Islomova, 2022).

Oilaviy muhit – bolaning birlamchi sotsial rivojlanish kontekstidir. Inklyuziv sharoitda ota-onaning faolligi, pedagogik savodxonligi va emotsiyal qo’llab-quvvatlashi bola moslashuvi va motivatsiyasining asosiy omillaridan biridir (Mardonova, 2020). Shu bilan birga, ijtimoiy xizmatlar, psixologik maslahat markazlari va mahalla institutlarining hamkorligi kengaytirilmoqda.

Uzlusiz inklyuziv ta’lim sharoitida bolalarning shaxsiy rivojlanishini qo’llab-quvvatlash pedagogik va psixologik strategiyalarning integratsiyasini talab etadi. Inklyuzivlik nafaqat ta’lim jarayoniga, balki sotsial muhitga, oila, jamiyat va ta’lim muassasalari o’tasidagi aloqalarga ham daxldordir. Bolaning individual rivojlanishini ta’minalash uchun pedagog va psixologlarning uzviy hamkorligi, o’zaro ishonchli va qo’llab-quvvatlovchi muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Mavjud ilmiy izlanishlar va tajribalar shuni ko’satmoqdaki, inklyuziv ta’lim tizimi doirasida bola rivojining ichki imkoniyatlarini to’liq ro’yobga chiqarish imkoniyatlari mavjud. Shu bois, ushbu yo’nalishda chuqurroq nazariy-empirik tadqiqotlar, professional tayyorgarlik va tizimli yondashuv zarurdir.

Farzandning shaxsiy rivojlanishida oilaning psixologik muhitini inkor etib bo’lmaydi. Ota-onalarning motivatsiyasi, bolaga bo’lgan munosabat, kommunikativ strategiyalari hamda ijtimoiy qo’llab-quvvatlash darajasi bolaning inklyuziv muhitga moslashuvi va shaxsiy shakllanishida muhim omillardandir .

## ADABIYOTLAR RO’YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdullaeva, A. (2022). Inson shaxsining psixologik rivojlanish bosqichlari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
2. Qodirova, D. (2021). Psixologik xizmatlar tizimining inklyuziv muhitdagi roli. Psixologik izlanishlar jurnali, 2(3), 55–60.
3. To’lqinova, M. (2020). Oila va maktab hamkorligida bolani psixologik qo’llab-quvvatlash omillari. Ilmiy-amaliy psixologiya, 1(1), 36–41.

4. G'ulomova, S. (2020). Ta'limda inklyuziv yondashuvlar va ularning amaliyotdag'i roli. O'zbekiston psixologiyasi, 1(4), 44–49.
5. Karimova, N. (2019). Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent: "Ilm ziyo" nashriyoti.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-dekabrdagi PQ-5283-sон qarori. (2021). [www.norma.uz](http://www.norma.uz)

#### MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

[**X.Sh. Kobilova**, Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti, maxsus pedagogika kafedrasи dotsent v.b. [**Ш.Х. Кобилова**, и.о.доцент кафедры специальной педагогики факультета педагогики Чирчикского государственного педагогического университета], [**X.Sh. Kobilova**, at the Department of Special Pedagogy, Faculty of Pedagogy, Chirchik State Pedagogical University].